

CHIMQO‘RG‘ON SUV OMBORNING IQDISODIY AXAMIYATI

Aliqulov Humoyun

Chirchiq davlat pedagogika universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Chimqo‘rg‘on suv omborining Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta‘siri kompleks tarzda tahlil qilingan. Unda suv omborining sug‘orma dehqonchilikni barqaror suv bilan ta‘minlash, hosildorlikni oshirish va qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, inshootning toshqinlarning oldini olish, ekologik muvozanatni saqlash, baliqchilikni rivojlantirish va yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari suv resurslaridan oqilona foydalanish hududning iqtisodiy o‘sishi va aholi farovonligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Chimqo‘rg‘on suv ombori, gidroiqtisodiyot, agroklastlar, akvakultura, suv toshqinlarini boshqarish, ekotizim xizmatlari, iqlim o‘zgarishi.

ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЧИМКУРГАНСКОГО ВОДОХРАНИЛИЩА.

Аликулов Хумоюн

*Студент 3 курса Чирчикского государственного педагогического
университета.*

Абстрактный. В данной статье комплексно проанализировано влияние Чимкурганского водохранилища на экономику Кашкадарьинской области. Освещена роль водохранилища в обеспечении стабильного водоснабжения орошаемого земледелия, повышении урожайности и диверсификации сельского хозяйства. Также обосновано значение сооружения в предотвращении наводнений, сохранении экологического баланса, развитии рыбного хозяйства и создании новых рабочих мест. Результаты исследования показывают, что рациональное использование водных ресурсов является важным фактором экономического роста региона и повышения благосостояния населения.

Ключевые слова: Чимкурганское водохранилище, гидроэкономика, агрокластеры, аквакультура, управление наводнениями, экосистемные услуги, изменение климата.

ECONOMIC SIGNIFICANCE OF THE CHIMKURGAN RESERVOIR.

Aliqulov Humoyun

3rd-year student of Chirchiq State Pedagogical University

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the impact of the Chimkurgan Reservoir on the economy of the Kashkadarya region. It highlights the role of the reservoir in ensuring stable water supply for irrigated agriculture, increasing crop yields, and supporting agricultural diversification. The study also substantiates its importance in flood prevention, maintaining ecological balance, developing fisheries, and creating new jobs. The results show that the efficient use of water resources is a key factor in regional economic growth and improving the welfare of the population.

Keywords: Chimkurgan Reservoir, hydroeconomics, agroclusters, aquaculture, flood management, ecosystem services, climate change.

Kirish (Introduction). Bozor iqtisodiyoti sharoitida suv resurslaridan foydalanish ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga aslo to'g'ri kelmaydi. Respublikamizda bugungi kunda tabiiy boyliklardan foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lib, ularga amal qilish zarurati ekologik va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqmoqda. Avvallari faqat sug'orma dehqonchilik, baliqchilik va kemachilik maqsadlarida foydalanilgan suv manbalari endilikda sanoatning yangi jabhalari – energetika, turizm, tog'-konchilik, to'qimachilik, qog'oz ishlab chiqarish va boshqa sohalarda keng istifoda etilmoqda. Tabiiy landshaftlarning shakllanishi, o'zgarishi va yangi tiplarining paydo bo'lishida antropogen suv inshootlari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Suv omborlari esa lokal va mintaqaviy miqyosda, tabiiy landshaftlarning o'zgarishida eng katta ta'sir etuvchi suv inshootlaridan hisoblanadi va ularning tabiiy muhitga bo'lgan ta'sirini

o'rganish tabiiy geografiya, xususan, landshaftshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Suv omborlari, asosan, daryolarning suv va energiya resurslaridan to'liqroq foydalanish maqsadida, yer sharining juda ko'p hududlarida qurilgan. Shundan kelib chiqib, Qashqadaryo suv omborlari geografiyasini viloyatimizda tarqalishi, ular faoliyati bilan bog'liq barcha jarayon va hodisalarni o'rganish, ularning geografik muhit bilan xususiyatlarini aniqlash, tahlil qilish hamda amaliy va ilmiy ahamiyatini belgilash ham tabiiy, ham iqtisodiy dolzarb masala hisoblanadi [1,2].

Mamlakatimizda aholi sonining oshishi, sanoat korxonalarining ko'payishi, energiyaga bo'lgan talabni yuksaltiradi. SHuning uchun ham qayta tiklanuvchan, ekologik jihatdan zararsiz va arzon bo'lgan gidroenergetik potentsiyaldan foydalanish zarurligini ta'kidlaydi. Respublikamizning gidroenergetik potentsiali 27,5 mlrd kVt ni tashkil qiladi, hozirgi kunda shundan 30 foiz qismidan foydalanib kelinmoqda. Bizda bu gidroenergetik potentsialni ko'tarish uchun etarlicha imkoniyatlarimiz mavjud. "O'zbekgidroenergo" ning ta'kidlashicha 2026 yilga borib bu ko'rsatkich 1,7 baravarga oshirilishi ko'zda tutilgan. Mamlakatimizda asosiy elektr energiyani qayta tiklanmaydigan ko'mir, neft va gaz mahsulotlari bilan ishlatiladigan issiqlik elektrostansiyalari orqali olinmoqda. Bunga bir yilda respublikamiz bo'yicha o'rtacha 24,96 mln. tonna shartli yoqilg'i sarflanmoqda. Vaholangki, foydalanishimiz mumkin bo'lgan gidroenergetik potentsialning yana 70 foiz imkoniyati turibdi. Vaziyatdan kelib chiqib 2010-2020 yillar mobaynida mamlakatimizda energetikani rivojlantirish maqsadida kichik daryolar va suv xo'jaligi ob'ektlari (sug'orish kanallari, suv omborlari) gidroenergetik potentsiyalidan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.12.1995 y. kungi № 476 - qarori qabul qilingan [3].

Suv resurslari cheklangan va iqlimi qurg'oqchil bo'lgan Markaziy Osiyo mintaqasida suv obyekt shunchaki tabiiy resurs emas, balki bevosita iqtisodiy o'sishni belgilovchi bosh omil (determinant) hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining eng yirik agrar, xususan, g'allachilik va paxtachilik

hududlaridan biri bo'lib, viloyat iqtisodiyotining asosiy tayanchi sug'orma dehqonchilikka asoslangan. Qashqadaryo o'zanida joylashgan Chimqo'rg'on suv ombori yozgi vegetatsiya davrida suvga bo'lgan keskin ehtiyojni qondirish maqsadida mavsumiy oqimni tartibga soluvchi strategik inshootdir.[4.6]

Materiallar va metodlar (Materials and Methods).

Qamashi tumani hududida 1957 yildan boshlab yuborilgan[8]. Hukumat 1956 yilda Qashqadaryo o'zanida Chimqo'rg'on suv omborining qurilishi to'g'risida qaror qabul qilgan[9]. Qurilish ishlari "Sredazgiprovdoklopka" loyihasi bo'yicha boshlangan bo'lib, bu inshootning loyiha mualliflari A.V. Petrov va G.I. Prozorov[10], qurilishi A. Y. Shcherbakov boshchiligidagi qurilish-montaj boshqarmasi quruvchilari zimmasiga yuklatilgan[11]. Dastlab, Chimqo'rg'on suv omborini qurish orqali hukumat viloyatda 2,5 ming gektardan ortiq maydonni sug'orishni rejalashtirgan[12]. 1960 yilda Chimqo'rg'on suv ombori birinchi navbati ishga tushirilgan hamda 1963 yilda suv saqlash hajmi 500 million kubometr bo'lgan Chimqo'rg'on suv ombori qurib bitkazilgan[13].

Chimqo'rg'on suv ombori ishga tushirilgan yilda unga tutash maydonlardan 200 gektarga yaqin maydon o'zlashtirilib qishloq xo'jaligi hisobiga kiritilgan, Qarshi cho'lida 140 gektar yer o'zlashtirilib chigit qadalgan[14]. Chimqo'rg'on suv omboriga Eski Anhor kanalining yangi o'zanidan Zarafshon daryosining suvi ham kelib qo'shilgan [15]. Bu esa suv omborida suv hajmining oshishiga sabab bo'lgan. Chimqo'rg'on suv ombori Qashqadaryo vohasining o'rta, ayniqsa, Qarshi cho'lidagi xo'jaliklar paxtachiligining rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Qamashi suv omborining dambasi (to'g'on) 1962 yilda qayta rekonstruksiya qilinib, 3 metrga ko'tarilgan[16]. 18 million kubometrغا yaqin suv sig'imiga ega bo'lgan Qamashi suv omborining ishga tushirilishi [17], tuman hududidagi yerlarni sug'orish imkoniyatini oshirgan. Shuningdek, mazkur suv omborining ishga tushirilishi Qamashi tumanidagi eng yirik Chimqo'rg'on suv omborining suvidan Qarshi cho'li hududidagi ekin maydonlarini sug'orishda ahmiyatli bo'lgan. Chunki, Qamashi suv omborining suvi tumandagi 5 ming gektar ekin maydonlarini

suv bilan ta'minlagan[18] bo'lib, Chimqo'rg'on suv omboridagi suv zaxirasining ma'lum bir qismini Qamashi tumanidagi ekin maydonlariga emas, balki Qarshi cho'liga yo'naltirilishiga imkon bergan.

Chimqo'rg'on suv omborining iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish uning mintaqa iqtisodiyotiga beshta asosiy yo'nalishda ta'sir ko'rsatishini aniqladi: Suv omborining eng yirik iqtisodiy foydasi bevosita irrigatsiya bilan bog'liq. Qamashi, Koson, Kasbi, Qarshi va Nishon tumanlaridagi yuz minglab gektar ekin maydonlari Chimqo'rg'on orqali kafolatlangan suv bilan ta'minlanadi. Hosildorlik drayveri: Suv tanqisligi kuzatiladigan iyul-avgust oylarida ekinlarning suvsizlik stressiga tushishining oldi olinadi. Natijada, g'o'za va g'alla kabi strategik ekinlardan kafolatlangan reja asosida hosil olinadi. Diversifikatsiya imkoniyati: Barqaror suv manbai mavjudligi hududda yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi intensiv bog'lar, eksportbop uzumzorlar va issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish uchun investorlar ishonchini oshiradi.

Chimqo'rg'on suv ombori Qashqadaryo viloyatida baliqchilik tarmog'ining o'chog'i hisoblanadi. Sanoat usulida baliq yetishtirish faqatgina iqtisodiy foyda keltiribgina qolmay, muhim ijtimoiy masalalarni ham hal etadi: Bozorlarda oqsilga boy go'sht mahsulotlari taklifini oshirish orqali oziq-ovqat narxlari inflyatsiyasini jilovlash; Baliq chavoqlari yetishtirish, inkubatsiya sexlari, baliq omixta yemi ishlab chiqarish hamda qayta ishlash zanjirini yaratish orqali yangi tarmoqni shakllantirish. Agrar sektordagi har bir barqaror gektar ekin maydoni bevosita va bilvosita bandlikni ta'minlaydi. Suvning kafolatlanganligi qishloqlarda mavsumiy ishsizlikni kamaytiradi. Aholi o'z tomorqasidan yilda 2-3 marta hosil olish imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa qishloq joylarida aholi daromadlarini oshirib, turmush darajasining yaxshilanishiga (poverty reduction) olib keladi.

Xulosa (Conclusion).

Chimqo'rg'on suv ombori shunchaki irrigatsiya inshooti emas, balki Qashqadaryo vohasi makro iqtisodiyotini ushlab turuvchi tayanch mexanizmlardan biridir. Obyekt mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi, agrosanoat integratsiyasi va

bandlik masalalarining asosiy kafolati hisoblanadi. Kelajakda global iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi xavflari ortib borishini hisobga olgan holda suv omborining iqtisodiy rentabelligini maksimallashtirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy chora-tadbirlar tavsiya etiladi: "Raqamli suv ombori" tizimiga o'tish: Suv sathi, oqim tezligi va suv sifati ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatib boruvchi SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition) raqamli tizimlarini to'liq joriy etish. Bu resurslarni inson omilisiz va yo'qotishlarsiz aniq taqsimlashga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni. (Yangi tahriri). Toshkent.
2. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO). Markaziy Osiyoda suv xavfsizligi va qishloq xo'jaligi barqarorligi: Muammolar va yechimlar. Rim: FAO nashriyoti. (2022).
3. Xolmatov Q., Jumaboyev O. O'zbekiston suv resurslari va ulardan samarali foydalanishning iqtisodiy-ekologik strategiyasi. Toshkent: Moliya va Iqtisodiyot. (2018).
4. Razzoqov A. Gidromelioratsiya va mintaqaviy iqtisodiyot muammolari. Samarqand: Qishloq xo'jaligi instituti nashrlari. (2020).
5. Dukhovny, V. A., & de Schutter, J. Water in Central Asia: Past, Present, Future. London: CRC Press/Balkema. (2011).
6. Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi rasmiy axborotnomasi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2018-2024 yy.). Qarshi.
7. Bekmirzayev, G. et al. "Economic Evaluation of Water Resource Management in Arid Regions of Uzbekistan". Journal of Arid Land Studies, 31(2), (2021).145-159.
8. Siddiqov. Sh. Chimqo'rg'on chashmasi // "O'zbekiston kolxozsovhoz ishlab chiqarishi" jurnali. – № 8. Avgust, 1963. – B. 34-37.

9. Irrigatsiya Uzbekistana. Tom I. – Tashkent. Fan, 1975. – S. 206.
14. Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1975. – B. 14.
- 10 Ma’lumotnoma // “Qashqadaryo haqiqati” gazetasi. – №11.
- 11 yanvar, 1955. – B. 1. 16. Siddiqov. Sh. Chimqo‘rg‘on chashmasi // “O‘zbekiston kolxozsovxoz ishlab chiqarishi” jurnali. – № 8. Avgust, 1963. – B. 34-37.
12. Siddiqov. Sh. Kurash boshlandi // “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” jurnali. – № 6. Iyun, 1966. – B. 38-39.
13. Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1975. – B. 13.
14. Qoriyev M. O‘zbekiston suv omborlari. – Toshkent. O‘zbekiston, 1969. – B. 76.
15. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10 tom. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.-B. 592. 21. Irrigatsiya Uzbekistana. Tom I. – Tashkent. Fan, 1975. – S. 206.
16. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 10 tom. – Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005.-B. 592.
17. Dala yozuvlari, 2023 yil. Qamashi tumani Qo‘tonboy qishlog‘i. Ma’lumot beruvchi: Shermatov N. (85 yoshda).